

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MAMADALIYEVA MADINA VAXOBJON QIZI

**TOSHKENT SHAHRI SHAROITIDA *MONARDA DIDYMA* L. VA
M. CITRIODORA CERV. EX LAG. NING BIOEKOLOGIYASI**

03.00.05 - Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Mamadaliyeva Madina Vaxobjon qizi

Toshkent shahri sharoitida *Monarda didyma* L. va *M.citriodora* Cerv. ex Lag. ning bioekologiyasi 3

Мамадалиева Мадина Вахобжон кизи

Биоэкология *Monarda didyma* L. и *M. citriodora* Cerv. ex Lag. в условиях города Ташкента 21

Mamadaliyeva Madina Vakhobjon kizi

Bioecology of *Monarda didyma* L. and *M. citriodora* Cerv. ex Lag. in the conditions of the city of Tashkent 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 44

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MAMADALIYEVA MADINA VAXOBJON QIZI

**TOSHKENT SHAHRI SHAROITIDA *MONARDA DIDYMA* L. VA
M. CITRIODORA CERV. EX LAG. NING BIOEKOLOGIYASI**

03.00.05 - Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/B1306 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.botany.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raximova Tashxanim
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Adilov Bezzod Abdullayevich
biologiya fanlari doktori
Nigmatullayev Alimjan Magmurovich
biologiya fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

**Toshkent davlat
pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 14-mart kuni soat 13³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (68-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "25" fevral kuni tarqatildi.
(2025 yil "25" fevral 7-raqamli reyestr bayonnomasi).

K.Sh. Tojibayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, akademik

U.H. Qodirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, PhD,
katta ilmiy xodim

X.F. Shomurodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
b.f.d., yetakchi ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo bo'yicha global iqlim o'zgarishi hozirgi kunda o'simliklar dunyosiga katta zarar yetkazmoqda. Aholi sonining ortib borishi natijasida insonlarning dorivor o'simliklardan tayyorlangan tabiiy dori vositalariga bo'lgan ehtiyoji yil sayin ortib bormoqda. Shu sababli, mahalliy sharoitda o'suvchi yoki xorij florasiga mansub dorivor, efir moyli, manzarali, asalshirali, oziq-ovqatbop hamda hushbo'y-ziravor hisoblangan istiqbolli o'simliklarni tanlash, ko'paytirish, yetishtirish yo'llarini ishlab chiqish orqali farmatsevtika sanoatini xom-ashyo bilan ta'minlash dolzarb muammolardan biridir.

Jahon amaliyotida turli ekologik sharoitlarda tarqalgan boy fitokimyoviy tarkibga ega, dorivor va manzarali bog'dorchilikda foydalaniladigan istiqbolli turlarning biologik, ekologik, fiziologik xususiyatlarini asoslash, mahalliy sharoitga introduksiya qilish orqali saqlab qolish va ko'paytirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu o'rinda qimmatli dorivorlik va manzaralilik xususiyatiga ega bo'lgan o'simliklarni introduksiya sharoitida moslashish xususiyatlarini aniqlash, o'sish va rivojlanish maromi, ontogenez bosqich va davrlari, gullash biologiyasi hamda suvga bo'lgan talabini aniqlash, istiqbolli o'simliklarni ishlab chiqarishga joriy etish, sanoat plantatsiyalarini yaratish uchun tavsiyalar ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Hozirda Respublikamizning tabiiy florasida tarqalgan turlarni muhofaza qilish, tabiiy holda o'suvchi va chet el florasiga mansub dorivor o'simliklarni introduksiya sharoitida ko'paytirish, turli ekologik sharoitga mos keladigan introdutsentlarni ko'paytirish va yetishtirish, ularning urug'chilik bazasini yaratish hamda amaliyotga joriy etishga katta e'tibor qaratilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “dori-darmon va tibbiy buyumlar muomalasini tartibga solish hamda aholiga arzon va sifatli mahsulotlar yetkazib berish tizimini takomillashtirish” bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, Lamiaceae oilasining *Monarda* L. turkumiga mansub, tabiiy floramizda uchramaydigan istiqbolli dorivor *Monarda didyma* L. va *M. citriodora* Cerv. ex Lag. turlari hamda navlarini respublikamiz sharoitida ko'paytirish yo'llarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-son “Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi PQ-4901-son “Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarning ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorlarida ham yangi turdagi dorivor o'simlik turlarini ko'paytirish va yetishtirish

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.

bo'yicha bir nechta vazifalar belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PQ-251-son "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2024-yil 25-iyundagi PQ-234-sonli "Mahallalarni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va qiyofasini tubdan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoning ko'pgina davlatlarida xorijlik olimlar tomonidan monarda bir nechta turlarining introduksiyasi, kimyoviy tarkibi, xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida foydalanilishi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari bir qator xorijlik olimlar: Litvada A. Savickiene (2002); Hindistonda A.S. Pathania & S.K. Guru (2013); Misrda A. Salama & M. Rexam (2016), M. Katoch & Sh. Phull (2017); Italiyada P. Matarelli et al. (2017); Polshada S. Laquale et al. (2018); Hindistonda S.A. Deepika & A.K. Chaudhari (2020)lar tomonidan o'rganilgan. MDH mamlakatlaridan Qozog'istonda: *Monarda citriodora* ning introduksiyasini B.Z. Abbasova (1996), o'sishi-rivojlanishini L.Yu. Kan va boshq. (1996), anatomik-morfologik belgilarini T.G. Karina va boshq. (2011) o'rganishgan. Rossiyada introduksiyasi, biologik xususiyatlari, efir moylari, kimyoviy tarkibi, antioksidantlik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha: R.V. Oparin va boshq. (2000), Z.Ye. Mashenko (2004), O.Ye. Vishnevskaya va boshq. (2006), Ye.T. Jilyakova va boshq. (2009), N.V. Korshachkina (2009), M.A. Bedulenko (2013), L.M. Grudzinskaya (2013), Ye.V. Krasnyuk (2015), A.N. Kriklivaya (2018), M.A. Myadelets va boshq. (2014), L.V. Bepalko va boshq. (2015), O.V. Gladisheva (2016), N.S. Ovcharenko (2016), N.V. Shorin (2016), A.S. Nikitina va boshq. (2018), A.S. Sibina (2020)lar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Respublikamiz sharoitida O'zR FA Toshkent Botanika bog'i manzarali o'simliklar kolleksiyasida monardaning hozirgi kunda 2 ta turi mavjud, lekin biologik xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar yetarli emas. Shu boisdan respublikamiz sharoitida ushbu turlar ontogenezing boshlang'ich davrlari, mavsumiy o'sishi va rivojlanishi, gullash dinamikasi, urug' mahsuldorligi, suv rejimi, fitokimyoviy tarkibini tahlil qilish, ko'paytirish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti Biologiya fakulteti Botanika va o'simliklar fiziologiyasi kafedrasining "O'zbekiston o'simliklar dunyosining xilma-xilligini muhofaza qilish va boyitish" hamda "Istiqbolli noan'anaviy o'simliklar introduksiyasi hamda fiziologik-biokimyoviy xususiyatlari" (2020-2024 yy.) mavzularidagi ilmiy-

tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: *Monarda didyma* L. va *M. citriodora* Cerv. ex Lag. larning bioekologik xususiyatlarini o'rganish va ko'paytirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

Monarda tur va navlari urug'larining laboratoriya va dala sharoitida urug' unuvchanligida optimal haroratni aniqlash;

ontogenezning dastlabki bosqich va davrlarida tur va navlarning morfobiologik xususiyatlarini tadqiq etish;

o'simliklarning mavsum davomida o'sish va rivojlanishiga ekologik omillarning ta'sirini aniqlash;

kunlik va mavsumiy gullash dinamikasi hamda urug' mahsuldorligiga abiotik omillar ta'sirini qayd etish;

turlarning o'sishi-rivojlanishi va urug' mahsuldorligi bilan tashqi muhit omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklarni baholash;

suv rejimining asosiy ko'rsatkichlari (suv miqdori, transpiratsiya jadalligi, suv tanqisligi, suv saqlash qobiliyati) ni aniqlash;

introduksiya sharoitida turlar va navlarning ko'paytirish yo'llarini ishlab chiqish hamda introduksion baholash.

Tadqiqotning ob'yekti Lamiaceae oilasining *Monarda* L. turkumiga mansub *Monarda didyma* L., *M. citriodora* Cerv. ex Lag. turlari hamda ularning "Jar-ptitsa", "Bergama", "Cambridge scarlet" va "Mona Liza" navlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti turlarning introduksiya sharoitida ontogenezi, ekologiyasi, mavsumiy rivojlanishi, gullash dinamikasi, suv rejimi, fitokimyoviy tarkibi va ko'paytirish yo'llari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada laboratoriya va tajribalari, morfologik, biometrik, fenologik, fitokimyoviy, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Toshkent shahri tuproq-iqlim sharoitida ontogenez davr va bosqichlarini o'rganish orqali *Monarda didyma*, *M. citriodora* turlari va *Jar-ptitsa*, *Bergama*, *Cambridge scarlet*, *Mona Liza* navlarining moslashish xususiyatlari aniqlangan;

o'simliklarning o'sish va rivojlanish xususiyatlari havo harorati va havoning nisbiy namligiga bog'liq holda ochib berilgan;

introdutsentlarning sutkalik va mavsumiy gullash dinamikasi yoritilgan hamda potensial va haqiqiy urug' mahsuldorligini aniqlash orqali mahsuldorlik koeffitsiyenti baholangan;

turlarning o'sish-rivojlanishi va urug' mahsuldorligi bilan tashqi muhit omillari o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsientlari baholangan;

suv rejimining asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash orqali, o'simliklarning suv miqdori, transpiratsiya jadalligi, suv tanqisligi, suv saqlash qobiliyati aniqlangan;

tur va navlarning introduksiya sharoitida ko'paytirish yo'llari ishlab

chiqilgan hamda introduksion baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'simliklar urug'idan va vegetativ usulda ko'paytirilganda birinchi va ikkinchi yilidan ko'kalamzorlashtirishda va farmatsevtikada foydalanish mumkinligi isbotlangan;

urug'lardan va vegetativ ko'paytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan;

o'rganilgan turlarning *ex-situ* sharoitida tirik kolleksiyasi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqot mobaynida olingan natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarning yetakchi xorijiy nashrlarda chop etilganligi, tadqiqot natijalaridan amaliy loyihalarni bajarilishida foydalanilganligi, dissertatsiya tadqiqotining amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilk marta introduksiya sharoitida Monardaning ikkita turi va to'rtta navining ontogenez xususiyatlarining aniqlanganligi, o'sish va rivojlanishi, sutkalik va mavsumiy gullash dinamikasining ekologik omillarga bog'liqligi hamda urug' mahsuldorligining ochib berilganligi, suv rejimining aniqlanganligi, fitokimyoviy tarkibi va ko'paytirish yo'llarining asoslab berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalarni respublikamizning adir va tog' etaklarida dorivor o'simliklar plantatsiyasini yaratish, shuningdek, farmatsevtika sanoatini xom-ashyo bilan ta'minlashda hamda manzarali bog'dorchilikda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *Monarda didyma*, *M. citriodora* larning bioekologik xususiyatlari bo'yicha olingan natijalar asosida:

o'simliklarning biomorfologik xususiyatlari hamda urug'idan va vegetativ ko'paytirish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyanoma Toshkent Botanika bog'i faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2024-yil 6-noyabrdagi №4/1255-2471-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Toshkent Botanika bog'ining manzarali va dorivor o'simliklar kolleksiyasi genofondini boyitish va tajriba ko'chatxonasida o'simliklarni ko'paytirish bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini bergan;

olingan natijalar bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyanoma O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil 26-noyabrdagi №03-03/3-11621-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Respublikamizning o'rmon xo'jaligi yerlarida *Monarda didyma*, *M. citriodora* turlari va *Jar-ptitsa*, *Bergama*, *Mona Liza* hamda *Cambridge scarlet* navlarining plantatsiyalarini yaratish va sifatli yer ustki xom-ashyosini olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha

jami 18 ta ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta, jumladan, 6 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 6 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 114 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘yekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Monarda L. turkumi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar”** deb nomlangan birinchi bobi monardaning o‘rganilish tarixi va geografiyasi haqidagi ma‘lumotlarga bag‘ishlangan. Mazkur bobda *Monarda* turkumiga mansub turlarning introduksiya qilingan va madaniylashtirilgan hududlari, dorivorligining o‘rganilishiga oid xorijiy va MDH davlatlarida amalga oshirilgan tadqiqotlar haqidagi ma‘lumotlar adabiyotlar tahlili asosida yoritilgan.

Monarda haqidagi ma‘lumotlar XVI asrda paydo bo‘la boshlagan. X. Kolumb tomonidan Amerika kashf qilingandan keyin o‘simlik birinchi marta ispan shifokori va botanik Nikolas Monardes tomonidan Ispaniyaga olib kelingan. Shifokor o‘simlik haqidagi ma‘lumotlarni *“Radostniye novosti iz Novogo mira”* (1569) va *“Meditsinskiye istorii Zapadnoy Indii”* (1580) kitoblarida yozib qoldirgan. U yozgan kitoblarda bu o‘simlikni hushbo‘y, yalpiz va limon hidini eslatuvchi o‘simlik sifatida ta‘riflagan. O‘simlikning gullari va barglaridan mahalliy hindular hushbo‘y, shifobahsh ichimliklar tayyorlashgan. Keyin esa Yevropa xalqlari muallifning kitoblaridan monarda haqidagi ma‘lumotlarni o‘qib o‘rganishgan va iqlimlashtirishni boshlashgan. Oradan ikki asr o‘tib, Karl Linney o‘zining *“O‘simlik turlari”* (1753) kitobiga ushbu turkumning tasnifini kiritgan va Nikolas Monardes sharafiga *“Monarda”* deb nomlagan (Oparin, 2000; Yermoshenko, 2023; Gladisheva, 2006).

XIX asrga kelib o‘simlik Osiyo va Yevropaga, jumladan, Fransiya, Angliya, Portugaliya, Buyuk Britaniyaga olib kelingan. Dastlab “yovvoyi bergamot”, “asalari balzami”, “Osvego choyi”, “Amerika limon balzami” nomi bilan atalgan hamda yalpiz va sitrus ta‘mini beruvchi o‘simlik sifatida foydalanilgan. Keyinchalik monardadan timol ishlab chiqarishda asosiy xom-ashyo sifatida foydalanilgan (Wagner, 2006; Anishenko, 2009; Krikliyeva, 2017). I.V. Krasnyukning (2020) ma‘lumoti bo‘yicha, monardaning vatani Shimoliy Amerika hisoblanib, Meksika va Kanada janubida keng tarqalgan va ular nam o‘tloqlarda, tog‘ yonbag‘irlarida va dengiz sathidan 1500 m balandlikdagi o‘rmonlarda

uchraydi. Amerika qit'asida 12 turdagi monarda keng tarqalgan.

POWO (2024) dan olingan ma'lumotlarga ko'ra, dunyo miqyosida turkumning 24 ta turi mavjud. Bir yillik turlaridan – *Monarda citriodora* L., *M. punctata* L.; ko'p yillik turlaridan esa – *M. didyma* L. va *M. fistulosa* L. keng tarqalgan. Tarqalishi bo'yicha keyingi o'rinlarda *Monarda mollis*, *M. clinopodia*, *M. media*, *M. russeliana*, *M. bradburiana*, *M. rubra*, *M. restinata*, *M. dispersa* va boshqa turlari uchraydi. Ushbu turlar asosida 50 ga yaqin navlari yaratilgan bo'lib, gibril formalari to'q qizil, ko'k, siyohrang, pushti va boshqa ranglarda gullaydi. Monardaning gibril formalari *M. fistulosa* L. va *M. didyma* L. turlari asosida olingan.

Monarda turkumi dorivor, efir moyli, hushbo'y-ziravor, asalshirali va manzarali ekanligi bilan alohida ahamiyatga ega. Hozirgi kunda monarda ekstrakti va efir moyidan antiseptik vositalar qatorida shamollashda, nafas olish a'zolari kasalliklari jumladan: surunkali bronxit, sil, mikoplazmali pnevmoniyani, organizmdagi zararli zamburug'larni yo'qotishda, sistit, psoriaz, gipoksiya va kamqonlik kabi kasalliklarni davolashda ishlatiladi [Krasyuk, 2015].

A.S. Pathania & S.K. Guru (2013), M. Katoch & Sh. Phull (2017) larning so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, o'simliklardan olingan dori moddalari inson papillomasi virusiga, bachadon bo'yni saratonini keltirib chiqaruvchi formasining oldini olishga qo'llanilganda, ijobiy natija bergan. Shuningdek, onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarda nur va kimyo terapiyasidan keyin organizm quvvatini tiklashga yordam berishi aniqlangan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot hududining tuproq iqlim sharoiti, tadqiqot ob'yekti va metodlari**" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar olib borilgan hududning iqlimi, yog'ingarchilik miqdori, havo harorati, havoning nisbiy namligi, tuproq namligi, tadqiqot ob'yektlari (1-rasm) hamda metodlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlar Toshkent shahri sharoitida – O'zbekiston Milliy universitetining Botanika bog'ida olib borilgan.



1-rasm. *Monarda didyma* (a), *Monarda citriodora* (b), *Jar-ptitsa* navi (c), *Bergama* navi (d), *Cambridge scarlet* navi (e), *Mona Liza* navi (f)

Dissertatsiyaning “*Monarda L. turkumi turlari va navlarining introduksiya sharoitida bioekologik xususiyatlari*” deb nomlangan uchinchi bobi o‘simliklarning ontogenez bosqichlari va davrlari hamda mavsumiy o‘sishi va rivojlanishiga bag‘ishlangan. Ushbu bobning birinchi bo‘limida monardaning 2 turi (*Monarda didyma* va *M. citriodora*) va 4 ta navi (Bergama, Jar-ptitsa, Mona Liza va Cambridge scarlet) ning ontogenezi yoritilgan. Quyida ikkita turning ontogenez bosqich va davrlari keltirilgan, to‘rtta navning ontogenez bosqich va davrlari dissertatsiya ishida batafsil berilgan.

Latent davri (se). *Monarda didyma* ning urug‘lari mayda, cho‘ziq-ovalsimon, to‘q-jigarrang. 1000 dona urug‘ning vazni 0,3-0,4 gr, uzunligi 1,5-1,7 mm, eni 0,5-0,8 mm. Urug‘larning unib chiqishi uchun optimal harorat 23+25 °C bo‘lib, uch yilgacha unuvchanligini yo‘qotmaydi. Bir yil saqlangan urug‘larning unuvchanligi 71-79%, ikki yillarnikida esa 64-70% ni tashkil etdi.

Maysa bosqichi (p). *Monarda didyma* ning urug‘lari 2022-yil fevral oyida issiqxonaga ekildi. Bahor oylarida (aprel, may) dala sharoitiga ekilganda, vegetatsiyasi orqaga surilib ketdi. Shu boisdan ontogenezning dastlabki bosqichlari fevral oyida issiqxonaga ekilgan o‘simliklarda kuzatildi. Mart oyining boshlariga kelib (10.03.2022) barcha ekilgan urug‘lar unib chiqdi va maysalarning bo‘yi 0,5-1 sm ga yetdi. Issiqxona harorati 18+20 °C ni tashkil qildi. Urug‘lar dala sharoitiga ekilganda aprel oyida (17.04.2022) havo haroratining pastligi (14+16°C) tufayli 10-15% unib chiqdi. May oyining o‘rtalarida (16.05) qaytadan ekilganda, havoning harorati 20+25 °C da unuvchanlik 50-60% ni tashkil qildi. Maysa bosqichida ildizlar rivojlanib, uzunligi 2-3 sm ga yetdi. Maysa bosqichi har ikki sharoitda 12-15 kun davom etdi.

Yuvenil bosqich (j). Issiqxonaga ekilgan o‘simliklar aprel oyining boshlarida (2.04.22) 2-3 sm gacha o‘sib, 3-4 tagacha chin barglar hosil qildi va uzunligi 1,2-1,5 sm ga yetdi. Ildizi 3-4 sm gacha chuqurlashib, bir necha mayda yon ildizchalar rivojlandi. Aprel oyining o‘rtalarida (13.04) barglar soni 6-7 tagacha ko‘payishi kuzatilib, yuvenil bosqich shu oyning oxirigacha davom etdi. 19-aprelda (2022-y.) o‘simlik ko‘chatlari dala sharoitiga ekildi va ontogenezning keyingi bosqichlari ochiq dala maydonida kuzatildi. Bu bosqich 30-35 kun davom etdi.


Immatur bosqichi (im). May oyining boshiga kelib (07.05.22), o‘simlikning bo‘yi 6-8 sm ga yetib, ikkita yon novdalar hosil bo‘ldi va ularning uzunligi 3-4 sm ga yetdi. Bu vaqtda havoning o‘rtacha harorati +20 +23 °C, havoning nisbiy namligi 36% ni tashkil etdi. Barglarining soni 6-10 ta, uzunligi esa 1,6-2,8 sm, eni 1,5-1,8 sm ni tashkil qildi. Ildizlarining uzunligi 2-3 barobarga ortib (10-12 sm) borib, ko‘p miqdorda yon ildizlar hosil bo‘ldi. Bu bosqich bir oy davom etdi.

Virginil bosqich (v). O‘simliklar vegetatsiyasining 90-100-kunida (7-10 iyunda) virginil bosqichi boshlandi. Bu paytda novdalarining balandligi 12-20 sm ga yetib, barglarining soni 30-40 ta, uzunligi 4,5-5,5 sm, eni 2,9-4,0 sm ni tashkil qildi. Yon novdalar soni 3-8 taga yetdi. Iyul oyining boshiga kelib virginil holatdagi o‘simliklarning bo‘yi 30-50 sm, yon novdalar soni 8-12 taga yetdi.

Barglarining soni 30-60 ta, uzunligi 5,2-7,0 sm, eni 3,4-5,2 sm bo'ldi. Ildizi 15-18 sm gacha chuqurlashdi. Vegetatsiyaning birinchi yilida bu bosqich sentabr oyigacha davom etdi. *Monarda didyma* ning birinchi vegetatsiya yilida ontogenezning faqat virginil davri kuzatildi. Umumiy vegetatsiyasi 170-190 kunda yakunlandi. Generativ davri esa ikkinchi vegetatsiya yilida kuzatildi.

Yosh generativ tuplari (g1). Yanvar oyida yer ostida saqlanib qolgan ildizpoyasidan yangi o'simliklar o'sib chiqdi va 9-15 ta novdalari o'sib, rivojlandi. O'simliklar bahor oylarida jadal o'sib, generativ holatga may oyining ohirida (25-31.05.23) o'tdi. Bu vaqtda havoning harorati o'rtacha +35°C, havoning nisbiy namligi 15% ni tashkil qildi. Generativ o'simliklarning bo'yi 80-110 sm, yon novdalarining uzunligi 15-30 sm ni tashkil qildi. Iyun oyining o'rtalariga kelib (14-17.06.2023), havoning harorati o'rtacha +39°C, havoning nisbiy namligi esa 17% bo'lganda, o'simliklarda yalpi gullash jarayoni kuzatildi. Gullashi shu oyning oxirigacha davom etib, bir vaqtning o'zida urug'lari shakllana boshladi. Avgust oyining oxiri – sentabr oyining birinchi yarmigacha (10-17.09) barcha urug'lar to'liq pishib yetildi (2-rasm). Ikkinchi yilgi vegetatsiyasi (2023) 220-240 kun davom etdi.

O'rta yoshli generativ tuplari (g2). *Monarda didyma* vegetatsiyasining uchinchi yilidan boshlab (2024 y), o'rta yoshli generativ o'simlik hisoblanadi. Bu bosqichda o'simlikning balandligi 90-120 sm, diametri 30-37 sm ga yetdi. Bu yoshdagi o'simliklarning generativ novdalarining soni 18-30 ta, vegetativ novdalari 4-6 ta bo'lib, 3 ta tartibda yon novdalar hosil qildi. Birinchi tartibli novdalarning uzunligi 80-100 sm, ikkinchi tartibli 30-40 sm, uchinchi tartibli esa 10-15 sm ni tashkil etdi. To'pguldagi gullar soni 280-300 ta ga yetdi. O'rta yoshdagi generativ o'simlik yosh generativ o'simlikka nisbatan 5-7 kun oldin gullaydi. O'simliklarning ildiz bo'g'zi markaziy qismida bo'linish boshlanadi va ikki-uchta porsial tuplarga bo'linadi. Ildizi 30-40 sm chuqurlashadi. Avgust oyining oxirigacha urug'lari to'liq pishib yetiladi. Umumiy vegetatsiya davomiyligi 300-315 kuni tashkil qildi.



2-rasm. *Monarda didyma* L. ning ontogenez davr va bosqichlari

Latent davri (se). *Monarda citriodora* ning urug'lari mayda, cho'ziq-ovalsimon, to'q jigarrang. Bu turning 1000 dona urug'i 0,3-0,5 gr, uzunligi 1,0-1,5

mm, eni 0,3-0,5 mm. O'simlik urug'larining laboratoriya sharoitida unuvchanligi aniqlash bir yil va ikki yil saqlangan urug'larda kuzatildi. Buning uchun +18 °C, +20 °C, +23 °C va +25 °C haroratlarda undirilib, tajribalar olib borildi va bu tur uchun ham urug'larning unishi uchun optimal harorat 23+25 °C ekanligi aniqlandi.

Virginil davri (v). Maysa bosqichi (p). Fevral oyining oxirida (27.02.2022) issiqxonaga ekilgan urug'lar mart oyining 10-15-kunlarida yoppasiga unib chiqdi. Urug'pallabarglari biroz dumaloq shaklda bo'lib, uzunligi 0,1-0,4 smni tashkil qildi. Ildizining uzunligi 1,5-5 sm ga yetdi. Maysa bosqichi 15-20 kun davom etdi.

Yuvenil bosqich (j). Aprel oyining birinchi dekadasida chinbarglar shakllana boshladi. Yuvenil bosqichdagi o'simliklarda 1-2 ta asosiy novdalar hosil bo'lib, uzunligi 3-7 sm ni tashkil qildi. Barglarining soni ko'payib, 4-8 taga yetdi. Bu bosqichning oxirida (27.04.22) havoning harorati o'rtacha +27 °C, havoning nisbiy namligi esa 28% ni tashkil etdi. Yuvenil holatdagi o'simliklar issiqxonadan dalaga olib chiqib ekildi. Bu bosqich 20-30 kun davom etdi.

Immatur bosqich (im). O'simliklar aprel oyining oxirida immatur holatda bo'lib, may oyida yon novdalari ko'payib bordi va 19-may kuni kuzatilganda, asosiy poyasining uzunligi 9-15 sm ekanligi aniqlandi. Immatur holatdagi o'simliklarning barglari to'q-yashil, ovalsimon-tuxumsimon yoki lansetsimon shaklda bo'lib, 12-16 taga yetdi va uzunligi 2,0-2,8 sm, eni esa 1,0-1,4 sm ni tashkil etdi. Bu vaqtda havoning harorati +31 °C, nisbiy namligi esa 27% ga yetdi. Bu bosqich 20-30 kun davom etdi.

Virginil bosqich (v). Iyun oyining boshlarida o'simliklar ancha o'sib, yon novdalarining soni ortib bordi va barglarining soni ko'payib, hajmi kattalashdi. Shu oyning ikkinchi yarmida (18.06.22) o'simlikning bo'yi 35-50 sm, yon novdalarning uzunligi esa 5-12 sm ga yetdi. Barglarining soni 36-60 ta, uzunligi 4,6-5,2 sm, eni 1,2-1,6 sm ga yetdi. Bu vaqtda havoning o'rtacha harorati +36 °C, havoning nisbiy namligi esa 17% ni tashkil qildi. Bu bosqich 20-25 kungacha davom etdi.

Generativ davr (g). O'simliklarning generativ davri iyun oyining o'rtalaridan boshlandi (20.06.22). Havo harorati o'rtacha +28 °C, nisbiy namligi esa 39% bo'lganda, g'unchalash fazasi boshlandi va bu faza 10-15 kun davom etdi. Shu oyning oxirida dastlabki gullari ochildi. Generativ davrda o'simliklarning pastki barglari to'kilib ketdi. Iyul oyidan avgust oyigacha o'simliklar gullab, bir vaqtning o'zida urug'lari ham paydo bo'ldi. Bu oylarda havoning o'rtacha harorati +38 °C, havoning nisbiy namligi esa 23% ni tashkil qildi. Gullashi 40-45 kun davom etib, avgust oyining oxiri – sentabr oyining o'rtalarigacha urug'lari pishib yetildi. Kech kuzgacha o'simliklar yashil holda saqlanib qoldi va sovuq tushgandan keyin barglari to'kildi. Umumiy vegetatsiya davri 190-210 kun davom etdi.

Shunday qilib, *Monarda didyma* va *M. citriodora* larning introduksiya sharoitida ontogenezi yillik iqlim omillarining ko'rsatkichlariga va ekish muddatlariga bevosita bog'liqligi isbotlandi.

Ushbu bobning keyingi bo'limida o'simliklarning introduksiya sharoitida mavsumiy rivojlanish maromi hamda o'sish va rivojlanishida tashqi muhit

omillarining korrelyatsiyasi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Monarda didyma ning mavsumiy rivojlanish maromi birinchi vegetatsiya yilida mart oyidan avgust oyigacha kuzatildi. O'simliklarning jadal o'sishi iyun-iyul oylarida kuzatilib, 25-iyunda havoning harorati +37 °C, havoning nisbiy namligi 25% bo'lganda novdasining balandligi 30-35 sm ni tashkil qildi. Iyul oyiga kelib, o'simliklarning balandligi 55-60 sm gacha yetdi. 17-avgust kuni havoning harorati +34°C, havoning nisbiy namligi 21% bo'lganda *M. didyma* ning balandligi 60-64 sm ni tashkil etdi. Ikkinchi yilgi vegetatsiyasida novdasining balandligi 80-110 sm ni qayd etdi.

Monarda citriodora turi va *Mona Liza* navining mavsum davomida o'sishi va rivojlanishini kuzatganimizda, may oyiga kelib bo'yi 9-15 sm, barglar soni 25-30 ta, barg o'lchami 2,0-2,8x1,0-1,4 sm ga teng bo'ldi. Bu vaqtda havoning harorati o'rtacha +28 °C, havoning nisbiy namligi esa 26% ni tashkil qildi. Iyun oyining o'rtalariga kelib, o'simliklarning jadal o'sishi boshlandi. Oyning oxirgi kunlariga kelib, havoning o'rtacha harorati +42 °C, havoning nisbiy namligi 9% bo'lganda, novdalarning uzunligi 40-50 smga yetib, uzunligi 5-12 sm li 4-8 ta yon novdalar hosil qildi. Iyul oyining oxirida novdalarning uzunligi 60-100 sm, barglarining o'lchami 5-8,5x1,5-2,2 sm ga yetdi. Bu vaqtda havoning harorati 38+41°C, havoning nisbiy namligi esa 10% ni tashkil etdi. Ushbu tur va navning gullashi va meva hosil qilishi iyul-avgust oylarida kuzatilib, sentabr oyining o'rtalarida urug'lari to'liq pishib yetildi. *Monarda citriodora* turi *Mona Liza* navidan gullar soning kamligi va generativ davrining 4-5 kun kechligi bilan farq qiladi. Ushbu tur va navning morfologik belgilari 3-rasmda keltirilgan.

Tur va navlarning nomlari	Gullarining ko'rinishi	Hayotiy shakli	O'simlik balandligi, sm	Barglarining shakli	Barg uzunligi va eni, sm
<i>Monarda citriodora</i>		bir yillik	80-100		5-8,5x1,5-2,2
<i>Monarda citriodora</i> ning Mona Liza navi		bir yillik	60-100		5-9x1,2-2
<i>Monarda didyma</i>		ko'p yillik	80-110		5-14x2-5

<i>M. didyma</i> ning Bergama Navi		ko'p yillik	80-120		5-12x3-6
<i>M. didyma</i> ning Jar-ptitsa navi		ko'p yillik	90-140		5-11x3-5
<i>M. didyma</i> ning Cambridge scarlet navi		ko'p yillik	90-155		6-12x4-6

3-rasm. Monarda turlari va navlarining morfologik belgilari

Shunday qilib, tur va navlarning o'sib rivojlanishi hayotiy formalariga, ekish muddatlariga hamda iqlim omillaridan asosan havoning harorati va nisbiy namligiga bog'liq bo'lib, *Monarda citriodora* va Mona Liza navi bir yillik bo'lganligi uchun, birinchi vegetatsiya yilida gullab urug' bog'ladi. Ko'p yillik tur *M. didyma* va uning navlari tabiiy sharoitidagi kabi, bizning sharoitda ham ikkinchi vegetatsiya yilida gullab urug' bog'ladi, bu esa ularning biologik xususiyatlaridan biridir.

Turlarning o'sish va rivojlanishida biometrik ko'rsatkichlarining (yon novdalar soni, barg o'lchami) korrelyatsiyasi o'simlik balandligi bilan bog'liq bo'lib, kuchli ($R=0,86$) korrelyatsiyada namoyon bo'ladi. Abiotik omillar orasida, havo nisbiy namligining o'rtacha ($R=0,54$) va kuchli ($R=0,86$) korrelyatsiyasi kuzatiladi. Mazkur holat, turlarning o'sishi va rivojlanishida havoning nisbiy namligi asosiy omil ekanligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning **“O'simliklarning gullash dinamikasi, urug' mahsuldorligi va fitokimyoviy tarkibi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida ikkita turning sutkalik va mavsumiy gullash dinamikasi, gullash jarayonida tashqi muhit omillarining ko'rsatkichlari, urug' mahsuldorligi va fitokimyoviy tarkibi tahlil etilgan. Navlarniki esa dissertatsiyada berilgan.


Monarda didyma ning gullari to'pgullarda joylashgan bo'lib, yuqoridan pastga tomon, kunduzi ochiladi. Sutkalik gullashning boshlanishi 5 iyunga (2023) to'g'ri keldi va bir kunda o'rtacha 10 ta gul ochildi. Yalpi gullash vaqti iyun oyining o'rtalarida (14.06.23) kuzatilib, bir kunda o'rtacha 25 ta guli ochildi. Bu vaqtda havoning o'rtacha harorati $+38^{\circ}\text{C}$, havoning nisbiy namligi esa 16% ni tashkil qildi. Yakuniy gullashi iyul oyining boshigacha davom etib, bir to'pgulda o'rtacha 8 donadan gullaganligi kuzatildi.

Mavsumiy gullash davomiyligi 35-40 kun davom etib, eng ko'p gullagan vaqti 14-iyunga soat 10^{00} - 14^{00} ga to'g'ri keldi. Bu vaqtda havoning harorati $35+43^{\circ}\text{C}$, havoning nisbiy namligi 13-19 % ni tashkil qildi. Mavsumiy gullash

davomida bitta to'pgulda o'rtacha 214 ta gullari ochildi va ijobiy haroratlar yig'indisi 1250-1310 °C ga teng bo'ldi.

Monarda citriodora ning gullashi birinchi vegetatsiya yilida kuzatildi. O'simlikning gullari halqasimon to'pgullarda joylashib, birin-ketin ochildi. O'simlikning gullashi 30-iyulda (2022) boshlandi va bitta to'pgulda o'rtacha 8 ta gullari ochildi. Bu vaqtda havoning harorati o'rtacha +37 °C, havoning nisbiy namligi esa 19% ni tashkil etdi. Yalpi gullash davrida (13.07.22) bitta to'pgulda o'rtacha 17 ta ochilgan gullari kuzatilib, avgustda gullashi yakunlandi (10.08.22) va o'rtacha 6 donaga to'g'ri keldi.

Mavsumiy gullashi 40-45 kun davom etib, yalpi gullash vaqtida bitta tupda 15-20 dona gullari ochildi. Bu vaqtda havoning harorati 39+43 °C, havoning nisbiy namligi 7-10% ni tashkil qildi. Har bir novdadagi 3-5 ta halqada o'rtacha 187 ta gullari ochildi. Ushbu ikkita turning mavsumiy gullash davomiyligi ob-havo sharoitiga bog'liq bo'lib, eng ko'p ochilgan gullar iyun-iyul oylarida havoning harorati o'rtacha +39 °C, soat 10-12⁰⁰ da kuzatilib, gullash jarayoni 1-1,5 oy davom etdi (4-rasm).



4-rasm. *Monarda didyma* va *M. citriodora* ning mavsumiy gullash dinamikasi

Urug' mahsuldorligi. *Monarda didyma* ning bitta to'pgulidagi PUM o'rtacha 170,5±6,8 , HUM 108±5,3 dona, MK 63,2% ni tashkil etdi. *Monarda citriodora* da esa PUM 159±6,3, HUM 116±4,9 va MK 72,9% ni qayd etdi. Demak o'simliklarning jadal o'sishi, rivojlanishi va yuqori urug' mahsuldorligi respublikamiz sharoitida yaxshi moslashganligidan dalolat beradi.

Monardaning gullari va barglarida 1,5 – 2,5% efir moylari borligi aniqlandi. Tarkibidan 28-29 ta komponentlar ajratilib, *Monarda citriodora* da 51,36 – 58,45% timol va 7,70 – 12,10% karvakkol mavjudligi qayd etildi. *M. didyma* turi va navlarida esa 54,57-56,49% timol, 3,20-5,36% karvakkol borligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning “**O'simliklarning suv rejimi**” deb nomlangan beshinchi bobida suv rejimining bir nechta ko'rsatkichlari o'rganilgan.

Suv miqdori. *Monarda didyma* ning mavsum davomidagi (2023) eng yuqori suv miqdori may oyida 83,5%, kam miqdori avgust oyida 50,8% ni tashkil qilib, aprel oyida kunlik diapazoni 3,3%, may oyida – 4,5%, iyunda – 2,3%, iyulda 6,2%, avgustda 3,4% va mavsumiy amplitudasi 32,7% ni qayd etdi.


Monarda citriodora ning barglaridagi suv miqdori may oyidan (81,6%) iyul

oyiga (64,5%) qarab kamayib bordi. Suv miqdorining kunlik diapazoni may oyida 4,2%, iyunda 3,5%, iyulda 3,3% va avgustda 4,3% ga teng bo‘lib, mavsumiy amplitudasi 17,1% ni tashkil qildi.

O‘simliklarning tarkibidagi suv miqdori bahor oylaridan yoz oylariga qarab kamayib bordi, bu esa havo haroratiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Suv tanqisligi. *Monarda didyma* ning barglaridagi kunlik suv tanqisligi aprel oyidan avgust oyigacha (2023 y.) kuzatildi. Suv tanqisligining yuqori miqdori iyun va iyul oylarida (26-27%), kunning yarmida havoning harorati 36+40 °C bo‘lganda aniqlandi. Kunlik o‘rtacha suv tanqisligi aprel oyida 20%, may oyida 19,6%, iyun oyida 22,2%, iyulda 23%, avgustda 22,7% ni qayd etdi. Mavsumiy amplitudasi esa 9,2% ni tashkil qildi.

Monarda citriodora ning barglaridagi kunlik o‘rtacha suv tanqisligi may oyida 18,3%, iyun oyida 19%, iyulda 22,5%, avgust oyida esa 23,8% ga teng bo‘ldi. Demak, suv tanqisligi may oyidan avgust oyiga qarab ortib bordi va mavsumiy amplitudasi 11,8% ni tashkil qildi. O‘simliklarning barglaridagi suv tanqisligi mavsum davomida kuzatilganda, havo haroratining oshib borishi bilan o‘simliklarning tanasida suv miqdorining kamayishiga sabab bo‘ldi (5-rasm).



5-rasm. O‘simliklarning barglaridagi suv tanqisligi

Transpiratsiya jadalligi. *Monarda didyma* ning barglarida transpiratsiya jadalligi aprel oyida kunlik o‘rtacha 912 mg/g.s, may oyida 787 mg/g.s, iyunda 1170 mg/g.s, iyulda 2091 mg/g.s va avgustda 1424 mg/g.s ga teng bo‘lib, mavsum davomidagi transpiratsiya jadalligining eng yuqori darajasi iyul oyida soat 14⁰⁰ da (3270 mg/g.s) hamda eng past darajasi iyun oyida soat 18⁰⁰ da (356 mg/g.s) kuzatildi. Mavsumiy amplitudasi 2914 mg/g.s ni tashkil qildi.

Transpiratsiya jadalligi *M. citriodora* ning barglarida may oyida kunlik diapazon 720 mg/g.s, iyunda 791 mg/g.s, iyulda 1970 mg/g.s, avgustda esa 1170 mg/g.s bo‘lib, transpiratsiya jadalligining mavsum davomida eng yuqori darajasi iyul oyida (2946 mg/g.s), eng past darajasi may oyida (456 mg/g.s) kuzatildi va mavsumiy amplitudasi 2490 mg/g.s ga teng bo‘ldi (1-jadval).

Transpiratsiya jadalligining kunlik dinamikasi vegetatsiyaning turli davrlarida tuproq namligiga, havoning haroratiga va nisbiy namligiga bog‘liq


bo'lib, vegetatsiya oxirida kamayadi.

1-jadval

O'rganilgan o'simliklarning transpiratsiya jadalligining maksimum va minimum qiymati hamda mavsumiy amplitudasi, mg/g.s (2023-y.)

Tur va navlar nomi	Maksimum	Minimum	Mavsumiy amplituda
<i>Monarda didyma</i>	3270 (VII)	356 (VI)	2914
<i>Monarda citriodora</i>	2946 (VII)	456 (V)	2490
<i>Jar-ptitsa</i>	3007 (VII)	156 (VI)	2851
<i>Bergama</i>	2787 (VII)	192 (VI)	2595
<i>Cambridge scarlet</i>	3225 (VI)	408 (VI)	2817
<i>Mona Liza</i>	2422 (VII)	536 (V)	1886

Suv saqlash qobiliyati. Suv rejimining bu ko'rsatkichi o'simlikning mahalliy sharoitga chidamliligini belgilaydi. *Monarda didyma* ning suv saqlash qobiliyati bahor oylarida yuqori bo'lib, yoz oylarida kamayib bordi. Suv saqlash qobiliyati aprel oyida 72,6%, may oyida 70,8%, iyunda 63%, iyulda 57,8% hamda avgustda 69,5% ni tashkil etdi va mavsumiy amplitudasi 14,8% ga teng bo'ldi. Suv saqlash qobiliyati *Monarda citriodora* da yuqori darajasi may oyida (67,8%), past darajasi iyulda (53,5%) kuzatildi. Mavsumiy amplitudasi 14,3% ni tashkil etdi (6-rasm). O'rganilgan o'simliklar suv rejimining ko'rsatkichlari bo'yicha labil tipga xos ekanligini ko'rsatadi.



6-rasm. O'simliklarning suv saqlash qobiliyati.

Dissertatsiyaning “O'simliklarni ko'paytirish va introduksion baholash” nomli oltinchi bobida o'simliklarni ko'paytirish yo'llari, hosildorligi va introduksion baholash haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

O'simliklarni ko'paytirish urug'idan va vegetativ usulda amalga oshiriladi. Buning uchun yerni ekishga tayyorlash, ekish muddati, ekish chuqurligi, ekish me'yori, qator oralig'i, ekinlarni parvarish qilish kabi tadbirlar ishlab chiqildi. *Monarda citriodora* ning yer ustki hosildorligi 2023-yilda gektariga 14-17 s, urug'i

0,9-1,1s, *M. didyma* niki esa 16-20 s, urug‘i 1,2-1,5 s ni tashkil etishi aniqlandi. 2024-yilda esa, *M. citriodora* da shunga muvofiq gektariga 16-22 s hosildorlik, 1,3-1,4 s urug‘, *M. didyma* da esa gektariga 18-25 s hosil va 1,7-2,0 s urug‘ berishi qayd etildi.

I.V. Belolipovning (1976) o‘simliklarni introduksion baholash (13 ballik) shkalasi bo‘yicha *Monarda didyma* turi va navlari 9 ball, *Monarda citriodora* turi va navi 7 ballni tashkil qildi. V.N.Bilovning (1971) hushbo‘y-ziravor o‘simliklarning manzaraliligini baholash (5 ballik) shkalasi bo‘yicha 4.6-5 ball bilan baholanib, yuqori manzarali ekanligi aniqlandi.

Ushbu tur va navlar Toshkent shahri sharoitida yaxshi moslashganligi sababli, respublikamizning tog‘oldi hududlarida, dorivor o‘simliklarni yetishtirish o‘rmon xo‘jaliklarida, manzarali bo‘lganligi uchun dam olish maskanlarida, xiyobonlarda hamda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirishda tavsiya etiladi.

XULOSALAR

“Toshkent shahri sharoitida *Monarda didyma* L. va *M. citriodora* Cerv. ex Lag. ning bioekologiyasi” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. *Monarda didyma* ning bir yil saqlangan urug‘larining unuvchanligi laboratoriya sharoitida 71-79%, ikki yildan keyin 61-70%, *M.citriodora* da shunga muvofiq 83-90%, 79-84% ni tashkil etib, optimal harorat 23+25 °C ekanligi aniqlandi. Dala sharoitida unuvchanlik har ikkala turda yillik ob-havo ko‘rsatkichlariga bog‘liq holda 40-60% ni tashkil etdi.

2. *Monarda citriodora* va navining vegetatsiya davri 190-210 kun davom etib, introduksiya sharoitida to‘liq rivojlanish siklini o‘tadi. *M.didyma* hamda navlarining ontogenez bosqich va davrlari birinchi vegetatsiya yilida virginil davrida yakunlandi. Ikkinchi vegetatsiya yilida yosh generativ, uchinchi yilida o‘rta yosh generativ holatga o‘tdi. Vegetatsiya davomiyligi birinchi yilda 170-190 kun, ikkinchi yili 220-240 kun, uchinchi yilda esa 300-315 kun davom etdi.

3. Turlar va navlarning gullash jarayoni yillik ob-havo ko‘rsatkichlariga bog‘liq. *Monarda didyma* va navlarida eng ko‘p ochilgan gullari soat 10⁰⁰-14⁰⁰da (havo harorati 35+43 °C, havoning nisbiy namligi 13-19% bo‘lganda) kuzatildi. To‘pgullarning gullash davomiyligi 35-40 kunni tashkil etdi. *M. citriodora* va navida esa bu ko‘rsatkichlar biroz farq qilib, eng ko‘p ochilgan gullar soni soat 10⁰⁰-12⁰⁰ da kuzatilib, to‘pgullarning gullash davomiyligi 40-45 kunni tashkil etishi qayd etildi.

4. Turlarning o‘shish va rivojlanishida biometrik ko‘rsatkichlarining (yon novdalar soni, barglarining o‘lchami) korrelyatsiyasi o‘simlik balandligi bilan bog‘liq bo‘lib, kuchli (R=0,86) korrelyatsiyada namoyon bo‘ldi. Abiotik omillar orasida, havo nisbiy namligining o‘rtacha (R=0,54) va kuchli (R=0,86) korrelyatsiyasi kuzatildi. Mazkur holat, turlarning o‘shishi va rivojlanishida havoning nisbiy namligi asosiy omil ekanligidan dalolat beradi.

5. Vegetatsiya davomida o‘simliklarning barglarida suv miqdorining

yuqoriligi, suv tanqisligining kamligi, faqat yoz oylarida biroz oshishi kuzatildi. Transpiratsiya jadalligining kunlik o'zgarish diapazonining kattaligi, suv saqlash qobiliyatining bahorda balandligi, yozda kamayganligi, suv rejimining labilligini izohlaydi.

6. O'simliklarning barglari va gullari tarkibida 28-35 tagacha komponentlardan iborat 1,5-2,5% efir moylari mavjud. *M. citriodora* va *Mona Liza* navida 51,36-58,45% timol, 7,70-12,10% karvaklol, *M. didyma* va navlarida esa 54,57-56,49% timol, 3,20-5,36% karvaklol qayd etildi. *Cambridge scarlet* navi timol miqdorining kamligi (0,20-0,32%) va linalool moddasining yuqoriligi (20,82-70,24%) bilan farqlanishi aniqlandi.

7. *Monarda citriodora* ning quruq yer ustki hosildorligi gektariga 14-17 s, urug'i 0,9-1,1 s, *M. didyma* niki esa ikkinchi yilgi vegetatsiyasida 16-20 s, urug'i 1,2-1,5 s ni tashkil etdi. Tur va navlarning jadal o'sib, rivojlanishi, stresslarga chidamliligi va yuqori xo'jalik ahamiyatiga egaligi introduksiya qilish imkoniyatining yuqori ekanligini izohlaydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 02/30.12.2019.В.39.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ БОТАНИКИ
НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА**

МАМАДАЛИЕВА МАДИНА ВАХОБЖОН КИЗИ

**БИОЭКОЛОГИЯ *MONARDA DIDYMA* L. И *M. CITRIODORA* CERV. EX
LAG. В УСЛОВИЯХ ГОРОДА ТАШКЕНТА**

03.00.05 – Ботаника

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером В2024.4.PhD/B1306.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.botany.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Рахимова Ташханим
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Адилов Бехзод Абдуллаевич
доктор биологических наук
Нигматуллаев Алимжан Магмурович
кандидат биологических наук

Ведущая организация:

Ташкентский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится “14” марта 2025 года в 13³⁰ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.B.39.01 при Институте ботаники (Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Актовый зал Института ботаники. Тел.: (+99871) 262-79-38, e-mail: botany@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ботаники (зарегистрировано за №68). Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Тел.: (+99871) 262-37-95.

Автореферат диссертации разослан “25” февраля 2025 года.
(реестр протокола рассылки №7 от “25” февраля 2025 года).

К.Ш. Гожибаев

Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней, д.б.н.,
академик

У.Х. Кодиров

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, PhD,
старший научный сотрудник

Х.Ф. Шомуродов

Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.б.н., ведущий
научный сотрудник

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире глобальное изменение климата в настоящее время наносит огромный ущерб растительному миру. В результате роста населения потребность в натуральных лекарственных средствах, изготовленных из растений, увеличивается с каждым годом. В связи с этим, одной из актуальных проблем является обеспечение фармацевтической промышленности сырьем путем отбора, размножения, разработки способов выращивания перспективных лекарственных, эфиромасличных, декоративных, медоносных, пищевых и пряно - ароматических растений, произрастающих в местных условиях или относящихся к зарубежной флоре.

В мировой практике ведутся научно-исследовательские работы, направленные на обоснование биологических, экологических, физиологических особенностей перспективных видов с богатым фитохимическим составом, распространенных в различных экологических условиях и используемых в лечебном и декоративном садоводстве, также сохранение и размножение их путем интродукции в местные условия. Большое внимание уделяется выявлению особенностей адаптации в условиях интродукции, перспективных растений, обладающих ценными лечебными и декоративными свойствами, определению ритма роста и развития, стадий и периодов онтогенеза, биологии цветения и потребности в воде, разработке рекомендаций по внедрению в производство и созданию их промышленных плантаций.

В настоящее время в нашей республике большое внимание уделяется, и достигаются определенные результаты по охране видов, распространенных в естественной флоре, размножению и выращиванию в условиях интродукции лекарственных растений, произрастающих естественно и относящихся к чужеродной флоре, также созданию их семенной базы и внедрению в практику. В стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены важные задачи по “совершенствованию системы регулирования обращения лекарственных средств и изделий медицинского назначения, а также поставки населению доступной и качественной продукции”¹. В связи с этим, важное научное и практическое значение имеет разработка способов размножения и внедрение в практику перспективных лекарственных видов рода *Monarda* L. – *Monarda didyma* L. и *M. citriodora* Cerv. ex Lag. из семейства Lamiaceae, и их сортов в условиях нашей республики.

В Постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП №4670 “О мерах по охране, культивированию, переработке и рациональному использованию имеющихся ресурсов дикорастущих лекарственных растений” от 10 апреля 2020 года; ПП №4901 “О мерах по расширению масштабов научно-исследовательских работ по выращиванию и переработке

¹Указ Президента Республики Узбекистан №60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года.

лекарственных растений, налаживанию их семеноводства” от 26 ноября 2020 года также установлено несколько задач по размножению и выращиванию новых видов лекарственных растений.

